



The image shows a laptop on a desk. The screen displays a dashboard with several data points and charts. The data points include: Total Users: 2500, Average Time: 1.51 Sec, Total Views: 2,500, Total Pages: 4,567, Total Clicks: 2,315, and Total Comments: 7,325. Below these are several area charts showing trends over time.


2021- yil yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu –korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 109,6** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 879,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,3 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 109,6	118,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	388,0	114,8
Moliyaviy xizmatlar	1 215,3	118,4
Transport xizmatlari	1 902,7	115,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 802,6	114,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	254,9	109,1
Savdo xizmatlari	2 294,3	109,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	198,5	127,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	487,7	164,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	149,5	146,8
Ijara xizmatlari	262,7	129,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	222,9	128,4
Shaxsiy xizmatlar	345,3	121,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	211,4	143,6
Boshqa xizmatlar	176,4	114,3

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **28,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **23,5 %**.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **94,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi 95,5 % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar





Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-iyun

2021- y. yanvar-iyun



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **73,4** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,1** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,3** % ni tashkil etib, bu esa **2 294,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 871,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **30,0** % iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **75,8 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **75,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 215,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **977,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **15,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **15,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **237,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **18,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **136,0** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,7 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,9 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,0 %**.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **388,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil etgan.



Taqqoslash uchun:

2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **332,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,3 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **109,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **487,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **6,0 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **164,4 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **283,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **15,9 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **46,7** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun

Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,9 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-iyun



2020- y.
Yanvar-iyun



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Samarqand viloyati	8 109,6	118,3	99,8
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	3 500,1	122,8	105,1
Kattaqo'rg'on sh.	188,8	114,3	95,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	266,8	115,7	94,3
Bulung'ur	219,8	115,9	96,3
Jomboy	351,0	115,1	86,7
Ishtixon	305,2	113,9	95,3
Kattaqo'rg'on	322,1	113,5	92,5
Qo'shrabot	156,4	112,7	90,1
Narpay	276,1	114,1	96,7
Payariq	284,9	113,1	94,8
Pastdarg'om	506,8	113,5	88,1
Paxtachi	171,0	113,3	94,9
Samarqand	512,4	115,0	91,3
Nurobod	157,4	113,2	91,6
Urgut	520,1	116,0	93,7
Toyloq	370,7	123,3	93,9

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 045,3
ming so'm

Hajmning
o'sishi

445,1
ming so'mga

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 045,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 600,2** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **97,8** % da qayd etildi.

116,1 %

O'sish sur'ati